FARG‘ONA VILOYATI YOZYOVON TUMANI HOKIMINING QARORI

150600, Yozyovon tumani Mustaqillik ko`chasi 1-uy, tel: (73) 412-15-15, www.yozyovon.uz

2022 - yil 30 - dekabr 364-11-165-Q/22 Yozyovon tuman hokimligi

Yozyovon tumani hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta‘minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatish to‘g‘risida

Yozyovon tumanida “Yo‘l harakati xavfsizligi to‘g‘risida”gi Qonunining 7-moddasi, O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2022-yil 12-apreldagi 172-sonli qarori bilan tasdiqlangan “Yo‘l harakati Qoidalari”ga rioya etilishini ta‘minlash, tuman hududida yo‘l harakati xavfsizligini ta‘minlash bo‘yicha profilaktik-ogohlantirish va og‘ir oqibatli yo‘l-transport hodisalarining oldini olish borasidagi ishlar samaradorligini oshirish yuzasidan tegishli tashkilotlar bilan hamkorlikda amalga oshirilishi lozim bo‘lgan keng ko‘lamli tashkiliy va amaliy chora-tadbirlar rejasini ijrosini ta‘minlash maqsadida, “Mahalliy davlat hokimiyati to‘g‘risida”gi O‘zbekiston Respublikasi Qonunining 6, 25-moddalariga asosan

Q A R O R Q I L A M A N:

1. Yozyovon tuman ichki ishlar bo‘limi hamda tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasining Yozyovon tumani hududida umumfoydalanuvdagi avtomobil yo‘llari va markaziy ko‘chalarida fuqarolar va transport vositalarini harakati xavfsizligini ta‘minlash, yo‘l transporti hodisalarini oldini olish maqsadida yo‘l belgilari o‘rnatishga ruxsat berish to‘g‘risidagi xatlari inobatga olinsin.

2. 4K-841 “Arabmozor-Xonobod-Yozyovon” avtomobil yo‘lining 10 km o’ng, 15 km chap tomonida 2 dona 3.24 yo‘l belgilari o‘rnatishga ruxsat berilsin.

3. Yozyovon tuman ichki ishlar bo‘limi (Q.Yuldashev), tuman yo‘llardan foydalanish unitar korxonasi (O’.Xaydarov)larga ushbu yo‘l belgisini o‘rnatish va doimiy nazorat qilish vazifasi yuklatilsin.

4. Ushbu qaror “Markaziy Farg’ona” gazetasi hamda tuman hokimligining rasmiy veb-saytida e‘lon qilinsin.

5. Mazkur qaror rasmiy e‘lon qilingan kundan e‘tiboran kuchga kiradi.

6. Ushbu qarorning bajarilishini nazorat qilishni o‘z zimmamda qoldiraman.

Tuman hokimi **D.T.Djalilov**